Ishlab chiqarish korxonalarida xavoning xarorati boshqarilmasa  $t=18-25\%$  dan,  $t=30-33\%$  gacha ko'tarilib ketishi mumkin. Shuning uchun GOST 12.1-006-88 bo'yicha va CH 247-81 ga asoslanib optimal iqlimiy sharoitlar belgilanadi.

Qishda:  $t=17-19^0$   $\varphi=40$  60%

Yozda:  $t=20-22^0$   $\varphi=40$  60%

Ishlab chiqarish binolari uchun umumiy xavo almashinuvini quyidagicha topamiz.

$$L_{tr}=L_{vit} = \frac{Q_{izb}}{C(t_{vim} - t_{pr}) \cdot r}; \text{ m}^3/\text{soat.}$$

$$Q_{izb}=Q_{ob}+Q_p+Q_m=300000+200000+180000=500000$$

$L_{tr}$  va  $L_{vit}$ —kelayotgan va chiqib ketayotgan havo qiymati.


$t_{it}$  va  $t_{vim}$ —kelayotgan va chiqib ketayotgan havo xarorati.

$$L_{tr}\text{ va } L_{vit} = \frac{500000}{0,24(30 - 22)1,73} = 222000 \text{ m}^3/\text{soat.}$$


#### 5.4. Elektr xavfsizligi

Ximoyaviy yerga ulashni qo'llash zaruratini asoslab berish. Ishlab chiqarish korxonalarida elektr toki keng qo'llaniladi. Shuning uchun elektr xavfsizligiga katta e'tibor berish kerak. Elektr zanjiri odam tanasi orqali ulanib qolsa yoki odam zanjirning ikki nuqtasiga tegib ketsa odamni tok uradi. Elektr xavfsizlik tadbirlaridan bir nechtasidan aytib o'tish mumkin, bulardan ximoyaviy yerga ulash ximoyasi, nolga ulash ximoyalarini qo'llash, qo'shimcha izolyatsiyani ishlatish, ximoya to'siqlarini qo'llash.

7.1. va 7.2. rasmda yerga ulash va nolga ulash ximoyasi keltirilgan.



7.1 Rasm. Yerga ulash ximoyasini



7.2. Rasm. Nolga ulash ximoyasini

### 5.5. Yong'in xavfsizligi

Yong'in xavfsizligi imorat sexning o'tga chidamliligiga qarab sanoat kategoriyasini aniqlash.

CH i P 11-2-81 ga asosan loyihalananayotgan inshoot yong'in, portlash, yonib portlash, xavfliligi bo'yicha <D> kateegoriyaga kiradi.


Qurilish materiallari yonmaydigan yong'inga chidash bo'yicha inshoot 1- darajalidir.

Birinchi o't o'chirish vositalariga bo'lgan extiyoj. Loyihalangan bo'limda yong'in o'chish shit va birlamchi o't o'chirish vositalari mavjud. Bunda 2 dona ognetusitel–OXP-10, va OU-5, 1 dona suvli idish, 1 ta –qumli idish, 2 ta paqir, 2 ta –lom, 1 ta- bolta, 2 ta-bagor.

O'tga qarshi suv taminoti. Loyihalananayotgan sex bo'limda suvni yig'ish, tashish, saqlash va foydalanish muhandislik qurilmasi mavjud. Bo'lim yong'in gidranti, suv hovuzchasi shlanglar bilan taminlangan.

### 5.6. Aloqa, yong'in signalizatsiya.

Yong'in xavfsizligi asosiy shartlarini taminlash uchun avtomatik vositalar qo'llaniladi. Bo'limda POST-1 xabar beruvchi qurilma qo'llanilgan. 20 m<sup>2</sup> maydoni nazorat qila olib, 70<sup>0</sup> C ishga boshlaydi va 0,7 sekundda xabar beradi. Bundan tashqari DV-1 xabarlatgich sxemasi qo'llanilgan.



7.3. Rasm DV-1 xabarlatgichning sxemasi.

1-xabarlatgichlar;

2-qabul qiluvchi uskuna;

3-yong'in pulti.

## **6. “0102 Qopqoq” detaliga mexanik ishlov berish texnologik jarayonini va uning sirtlariga ishlov beruvchi kesuvchi asboblarini loyixalash mavzusini kompyuterli o`qitish texnologiyasini ishlab chiqish**

O`qitish texnologiyasini optimallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida o`quv-tarbiyaviy jarayoni tashkil qilishning ilmiy yo`l-yo`riqlarini, shuningdek, ilm va texnikaning hozirgi yutuqlarini hisobga olgan holda o`quv yurtlarining material-texnik bazasini yangilashni ko`zda tutadi.

O`qitishning komp'yuter texnologiyasi yoki komp'yuterli o`qitish – bu texnik o`quv vositalaridan biri komp'yuter hisoblangan o`qitish tizimidir.

Komp'yuter o`quv jarayonida quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

- predmet va dasturlashga o`rgatish;
- o`rganish va mustaqil ta`lim;
- bilimlarni rivojlantirish va mustahkamlash (hisob-kitob, masala yechish, grafika va boshqalar);
- o`qituvchi va o`quvchi mehnatini ilmiy tashkil qilish;
- ma`lumotnomalar kutubxonasi va boshqa axborot ma`lumotnomalari;
- o`zlashtirish, darsga qatnashish va boshqalar bo`yicha ma`lumotlar yig`ish va tahlil qilish;
- bo`sh vaqtni tashkil qilish.

O`qitishning yana 2 turi mavjud:

Elektron o`qitish – bu elektronika va qog`ozsiz informatikaning zamonaviy vositalari yordamida o`qitishdir. Qog`ozsiz informatika axborotni EHM va mashinaviy tashuvchilari asosida axborotlarni yig`ish, jamlash, qayta ishlash va almashtirish yoki tarqatish texnologiyasini tavsiya etadi. Elektron o`qitishning 2 asosiy turi farqlanadi:

1. retseptiv – televizor orqali, tovush yoki videomagnitofonga yozish, o`quv-texnik vosita yordamida eshittirish orqali o`zatiladigan bilimni qabul qilish va o`zlashtirishdir;

2. interaktiv – inson va mashina dialogi ko`rinishda o`rganuvchi va o`rgatuvchi tizimning o`zaro aloqasi.

Dasturiy o`qitish – maxsus tayyorlangan dastur bo`yicha o`qitish.

Dasturiy o`qitishning asosini quyidagi printsiplar tashkil qiladi:

- materialni katta bo`lmagan, ammo bir-biri bilan bog`liq bo`laklarga bo`lish;
- dasturiy matnni o`rganuvchi ta`lim oluvchining faoliyatini faollashtirish;
- har bir javobga tezda baho qo`yish;
- o`qitish mohiyatida temp (sur`at)ni individuallashtirish.

Bu fanni o`qitishda texnologik vositalardan foydalanish, displey sinflarini dasturiy va axborot ta`siridan, turli xil murakkablikdagi topshiriqlarini bajarish, talabalar komp`yuter savodxonligini mutaxassisligiga bog`liq holda shaxsiy EXMLardan foydalanishni kengaytirish yo`li bilan oshirish komp`yuterga o`qitishning yangi kotseptsiyasidan foydalanish. Ularni hammasi ta`lim tizimining majburiy elementi o`z ichiga oladi: Ma`ruzachi – ya`ni o`qituvchi. o`qitilishi lozim bo`lgan materiallar, o`qitish forma va vositalari.

O`qitish tizimida dasturlar quyidagi reja asosida olib boriladi:

1. SHaxsiy kompyuter;
2. Axborot texnologiyalari (operatsion tizim bilan matnlarni qayta ishlash texnologiyalari);
3. Axborot;
4. Grafik tahrirlash;
5. Elektron jadval;
6. Algoritmalar;
7. Dasturlash asoslari;
8. Ma`lumotlar ombori (bazasi);
9. Amaliy dasturlash;
10. Zamonaviy axborot tenologiyalarining kelajagi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining inson va jamiyat rivojlanishidagi roli katta. O'zbekiston Respublikasida ham axborotlashni rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda

O'qitishning uslubi bu ta'lim va tarbiya vositasi sifatida o'qitish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan bo'lib o'qituvchi va o'qituvchi o'zaro faoliyatining tartibga solingan usulidir. O'qitish uslubining muammolari qanday o'qitish savoli yordamida qisqa to'ziladi. Ammo faqat nima uchun, nimaga va kimga savollari bo'yicha qanday savolga ya'ni o'quvchilar fikrlash faoliyati darajasi, o'qitish mazmuni maqsadlariga yaxshi javob bera oladigan o'qitishning aynan o'xshash uslubiyatlarini tanlash bo'yicha savolga yaxshi javob berishi lozim.

O'qitish uslubiyati bu o'qitish maqsadlariga ta'lim va tarbiya sifatiga yetishishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munasabatlarining tartibli usuluri. O'qituvchi ish faoliyatida quyidagi funktsiyalarni ajratish mumkin: o'quv axborotlashgan, rivojlangan, tarbiyaviy izlanishli, konstruktiv, tashkilotchilik bo'lishi shart.

Masofaviy ta'lim (MT) - bu o'qituvchi va o'quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orkali ajratilgan sababli, informatsion texnologiyalardan fodalangan ta'lim turi.

Bu ta'lim turini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik o'zoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni komp'yuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

1) Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy o'quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har bittasi virtual o'qituvchiga birlashtirilgan bo'lishadi. Konsul'tatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa regional bo'limlar bo'lishi shart. SHunday o'quv kurslarda o'qituvchi va o'quvchilarga o'quv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va ozodliklar beriladi.

Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochik Universitetidagi (<http://www.ou.uk>) ta`limni olish mumkin.

2) Ikqilamchi model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta`lim o`quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o`quv dasturi va darslar jadvali, imtixonlar va ularni baholash mezonlari mavjud. SHunday o`quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni masofaviylarga qaraganda ko`p. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yunalishlarni izlanishlarida qo`llaniladi.

Bu modelga misol qilib YAngi Angliya va Avstraliya Universitetidagi (<http://www.une.edu.au>) ta`limni olish mumkin.

3) Aralashgan model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta`lim turlirini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. O`quvchilar o`quv kursning bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa masofadan o`qiydi. SHu bilan birga bu ta`lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va lektsiyalar o`tkazish ham kiradi.

Bu modelga misol qilib YAngi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi (<http://www.massey.ac.nz>) ta`limni olish mumkin.

4) Konsortsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir biri bilan birlashini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri o`quv kurslarni tashkil qilib ishini ta`minlasa, ikkinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga o`quvchilarni ta`minlaydi. SHu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas balki bitta kafedra yoki markazi yoki universitet o`rnida ta`lim sohasida ishlaydigan korxonalar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o`quv kurslarni doimiy ravishda nazorat qilish va muallif huquqlarini tekshirish zarur bo`ladi.

Bu modelga misol qilib Kanadadagi Ochiq O`quv Agentligidagi (<http://www.ola.bc.ca>) ta`limni olish mumkin.

5) Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir biri bilan o`zlari yaratgan o`quv kurslar bilan almashishadi. Masofaviy ta`lim sohasida yetakchi bo`lgan o`quv muassasa bu sohada ilk qadam kuyadigan muassasaga o`zining o`quv kurslarni taqdim qiladi. Ushbu modelda ikkala muassasa o`quvchilari bir xil ta`lim va diplomlar olishadi.

Bu modelga misol qilib Ochiq Universitet Biznes maktabi va SHarqiy Yevropa Universitetlari bilan bo`lgan hamkorligi bo`lishi mumkin.

6) Validatsiya. Ushbu model universitet va uning filiallari bilan bo`lgan munosabatlariga uxshash. Bu modelda bitta universitet o`quv kurs, diplomlarni kafolatlasa, qolgan bir nechta universitetlar o`quvchilarni ta`minlaydi.

7) Uzoqlashgan auditoriyalar. Ushbu modelda informatsion va kommunikatsion imkoniyatlar keng foydalaniladi. Bitta o`quv muassasada bo`lib utgan o`quv kurslar videokonferentsiyalar, radiotranslyatsiyalar va telekomunikatsion kanallar orqali sinxron teleko`rsatuvlar ko`rinishida boshqa auditoriyalarga o`zatiladi. Aralashgan model bilan farqi shundaki, bu modelda o`quvchilar kunduzgi ta`limda qatnashmaydi.

8) Proektlar. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maqsadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish masofaviy ta`lim mutaxassislari va pedagoglar tuplangan ilmiy-metodik markazga tushadi. Ushbu modelda yaratilgan kurslar axolining katta qismiga namoyish qilinib o`z vazifasini bajargandan keyin to`xtatiladi.

Masofaviy ta`limning o`zini metodik, iktisodiy, sotsial yutuklari va afzalliklarga hamda o`zining kamchiliklari va salbiy tomonlarga ega.

Metodik yutuklar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Dars jadvalni qulayligi. O`quvchi o`ziga ma`kul bo`lgan vaqtda o`quv ja rayoniga katnashishi mumkin. Qulay foydalanish manzillari. O`quvchi internet kafe, uy, mexmonxona, ish joyida va boshqa joylardan o`quv jarayoniga katnashishi mumkin. Qulay o`qish tempi. Ta`lim, o`quvchilar yangi bilimlarni tushunish tempida o`tkaziladi. Qulay o`quv reja. O`quv rejani talabalarga individual va davlat ta`lim talablariga mos xolatda tashkil qilish mumkin.
2. Ma`lumotlar bazasini tuplanishi. Oldingi ukigan talabalar bilimlarini tuplash va undan foydalanish imkoniyati. Ko`rgazmali kulayliklari. Mul'timediya imkoniyatlaridan tulik foydalanish imkoniyati.
3. Malakali o`qituvchilarni tanlab ta`lim jarayoniga jalb qilish.

Iktisodiy yutuklar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– CHeksiz masofaga ta`lim berish. O`qituvchi va o`quvchilar urtasidagi masofa xech qanday ahamiyatga ega emas.

- YOsh cheklanishlari yukligi. O`qishga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilinadi.

Ammo masofaviy ta`limda salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim.

Ularg qayidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Elektron xolatdagi ta`lim va mulokot jarayonlarga ishonchsizlik. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual xolatdagi ta`lim turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta`lim turlarida o`qish istagida bo`lishadi.

- Davlat masofaviy ta`lim standartlari yukligi va natijada davlat nusxasidagi diplom berilmasligi. SHu sababdan ko`pgina masofaviy ta`lim ko`rslari bitiruvchilariga faqat ushbu ko`rsni bitirganligi xakida sertifikat yoki guvoxonmalar berishadi.

- Virtual muxit va texnika ta`minot bilan bog`likligi. Masofaviy ta`lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taallukli.

Masofaviy ta`limning asosiy texnologiyalariga kuyidagilarni kiritish mumkin: INTERAKTIV texnologiyalar: Internet masofaviy ta`lim portali.

- Video va audio konferentsiyalar. Elektron pochta orkali ta`lim.
- Internet orkali mustaqil ta`lim olish. O`zokdan boshqarish sistemalar.
- Onlayn simulyator va o`quv dasturlar. Test topshirish sistemalari.

INTERAKTIV bo`lmagan texnologiyalar: Video, audio va bosmaga chikarilgan materiallar. Televizion va radio ko`rsatuvlar. Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferentsiyalar - bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, o`zoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion xolatda bir biri bilan bog`lab ta`lim olish yo`li. Video va audio konferentsiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqorii tezlikga ega bo`lgan aloqa kanali va o`qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko`rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo`ladi.

Internet orkali mustaqil ta`lim olish - bu Internetda joylashgan ko`pgina saytlarda joylashgan katta hajmdagi ma`lumotlar ustidan mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo`li.

Elektron pochta orkali ta`lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida xatlar orqali muloqot o`rnatib ta`lim olish yo`li. U yordamida har xil test, vazifa, savol-javob va ko`rsatmalarni (matn, grafika, mul`timediya, dasturlar va boshqa ko`rinishida) jo`natib qabul qilishimiz mumkin.

O`zoqdan boshqarish sistemalar - murakkab dastur, sistema va uskunalarni real xolatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus sistemalar yordamida bilim olish yuli. O`zoqdan boshqarish sistemalarning asosiy vazifasi o`quvchiga faqatgina amaliy bilimlarni berish.

Simulyator, elektron darsliklar va o`quv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni komp'yuter dasturlari orqali o`quvchilarga off-layn xolatida olish yo`li. Simulyator va elektron darsliklar xozirgi kunda ta`lim sohasida juda keng qo`llanilyapti.

Test topshirish sistemalar - bu maxsus dasturlar yordamida o`quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarni tekshirish ing asosiy vazifasi bu talabalar bilimlarini tekshirib ularni baholash.

Internetning masofaviy ta`lim portali bu maxsus Internet saytlar (onlayn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta`lim jarayonini tashkil qilish, yoki boshqa so`zlar bilan o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida elektron on-layn muloqotni o`rnatish, o`qituvchilarga o`quv materiallarni joylashtirish va o`quvchilarga shu ma`lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta`lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratish.

Masofaviy ta`limni jarayonida quyidagilar qkatnashishi shart, bular - masofaviy kurs avtor, metodist, o`qituvchi (t'yutor, koordinator), ruhshunos, administrator, dokumentovod, telekommunikatsiya va dasturiy ta`minot guruhi hamda o`quvchilar.

- Avtor - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilatuvchi va taxrirlovchi shaxs.

- Metodist - masofaviy kurs avtoriga konsul'tatsiyalar beruvchi va ko`rsni taxrirlovchi shaxs.

- O`qituvchi - o`quvchilar bilan o`qish jarayonida muloqotda bo`luvchi va ularga yordam beruvchi hamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.

- Ruhshunos - o`qish jarayonining psixologik monitoringni tashkil qiluvchi shaxs.

- Administrator - o`quvchilarni qabul qilish va o`qishdan chetlash masalalarini yechuvchi va malakali o`qituvchilarni jalb qiluvchi shaxs.

- Dokumentoved - hujjatlar bilan ishlovchi shaxs.

- Telekommunikatsiya va dasturiy ta`minot guruhsi -dasturlar va telekommunikatsiya resurslar ishini ta`minlovchi shaxslar.

- O`quvchilar - o`quv jarayonida qatnashuvchi shaxs.

O`quv jarayoninin tashkil qilishda esa albatta kuyidagi kadamlarni bajarishimiz zarur bo`ladi:

- Kurs maqsadlarini aniqlash. Qaysi bilimlarni (mavzular, fan va ... ) va kimlar uchun o`qitish kerak.

- O`qish metodlarini tanlash. O`quv jarayoni davomida bilimlar va ko`nikmalar darajasini diagnostika hamda tekshirish manbalarini va usullarini aniqlash kerak.

- O`quv materialga metodik talablarini ishlab chikarish. Yangi bilimlarni berish usullarini va xajmlarni aniqlash kerak.

- Darslar jadvalini ishlab chikarish. Butun kursni bir nechta modullarga bo`lish, har bitta modul tugallashidan keyin o`quvchi tomonidan qanaqa bilimlarga ega bo`lishini aniqlash kerak.

- O`quv jarayonini monitoringni tashkil qilish.

- Tekshiruv jarayonlarni rejalashtirish,

- O`quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish,

- O`quv jarayoni natijalarini prognozashtirish,

- Natijalarni aniqlash va tahlil qilish.

Hozirgi kunda ta`lim va ishlab chiqarish sohasini komp'terlashtirish va shu sohalarda informatsion texnologiyalarni rivojlantirish haqida ko`plab prezidentimiz farmonlari va Oliy majlis qarorlari chiqarilgan.

Komutativlik – bu funktsiyalarning hammasi o`zaro boglangan va mos ravishda asoslangan bo`ladi. O`qituvchining funktsional faoliyati shunday tizimki u tayanch punktlar sifatida pedagogika, umumiy pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya asoslarini bilishi lozim. Ularga ko`shimcha ravishda maxsus fanlarni kasbiy bilish va mukammal o`rganish kiradi. O`quv axborotlashgan funktsiyaning asosi talabalarga o`kuv va ilmiy axborotlarni yetkazish hisoblanadi. Bu funktsiyalarni amalga oshirish axborotlarni didaktik qayta ishlash, ularni talabalarning tayyorgarlik darslariga moslashtirish, ma`ruza va boshqa mashg`ulotlarni pedagogik asosda ko`rish, o`kuv texnik vositalardan foydalanishsiz mumkin emas.

O`quv jarayoni talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ishlash, bilimlarni shakllantirish, individual tayyorgarlik asosiy moment hisoblanadi. Ularni axborotlab olish uchun talaba qobiliyatini nimalarga qiziqishi, o`kitishning aktiv usullarini qo`llay ola bilish lozim bo`ladi.

Muammoli ma`ruza axborotning antonimidir. Muammoli vaziyatning samarasini oshirishning turli xil usullari mavjud: Suhbat usuli; Og`zaki bayon; Ko`rgazmali usul; Amaliy usul; Ta`limdagi faollik usuli va h.k.

Suhbat usuli va og`zaki bayon bu umum texnika va kasbiy fanlarni o`qitish jarayonida o`quv materiallarini og`zaki bayonini gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Bunda mavzu to`liq taqqoslanadi, isbotlanadi va misollar bilan tushuntiriladi. Og`zaki bayon qilish usulining umumiy talablari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy texnik aniq mazmunli bo`lishi kerak;
2. Mantiqiy to`zilishi va ketma-ketligi;
3. Ta`lim oluvchilarga tushunarli va oson yetib boradigan;
4. Har bir bosqichda fikrning aniq ravshanligi;
5. Ta`lim oluvchilarning e`tiborliligi va faolligini oshirish.

Suhbat bu ta`limning shunday usulki-unda o`qituvchining to`g`ri qo`yilgan savollari yordamida ta`lim oluvchilar ilgari o`zlashtirilgan bilimlarni esga tushiradilar.

SHu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlarni xosil qilishga undaydilar. Umumiy o`tkazilgan suhbatlar ta`lim oluvchilarning qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarini yaxshi egallashga olib keladi. Umumtexnik va kasbiy fanlarni o`rganishda evristik suhbatning quyidagi shartlarini ko`rsatish mumkin:

-o`quv materiallarining mazmuni mantiqiy to`g`ri to`zilgan bo`lishi shart.

-yangi o`quv materiallarini o`rganishda ko`proq texnik va texnologik xujjatlarni muhokama qilishga qaratish kerak.

-suhbatni boshqa metodlardan va o`quv ishlari turlari bilan birga olib borish kerak.

Ko`rgazmali metod - insonning tashqi olamini sezishning eng muhim organi bu ko`zdir. Olimlarning fikricha miya 80% axborotni ko`z orqali oladi, 80% ish operatsiyalari ko`z orqali qo`llaniladi. Mana shundan ko`rishimiz mumkinki ko`rgazmali usullarning ahamiyati juda kattadir. Umumtexnik va kasb ta`limi fanlari bo`yicha ko`rgazmali usullar tabiiy (asbob, dastgoh, detal, jixoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, maket, kino, video fil`mlar, slaydlar, komp'yuter, mul'timedia kiradi). Amaliy usulning asosini mashq tashkil etadi. Mashq o`tkazishning asosiy maqsadi o`qitish jarayonida ta`lim oluvchilarning texnika va kasbiy fanlar bo`yicha egallagan bilimlarini amaliyotda ko`llay bilishiga o`rgatishdir. Hamma mashqlarni 3 ta asosiy turga ajratish mumkin: Reproduktiv; Badiiy; Izlanuchanlik.

Reproduktiv mashq - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta`lim oluvchilar qurilmalarning to`zilishi, materiallar, asbob-uskunalar, yozma vazifalarni o`rganadilar. Reproduktiv mashqda chizmalarni, sxemalarni, grafik, diagrammalarning muhokamasi qilinadi va ularni ta`lim oluvchilar bajaradilar.

Badiiy - bu turdagi mashqlarni bajarishda ta`lim oluvchilar egallagan bilim va malakalardan turli xil kombinatsiyalarda foydalanadilar, ya`ni oldiga qo`yilgan vazifalarni mustaqil ravishda javoblarni topadilar. Badiiy mashq turlaridan biri produktiv masalalarni hal qilish, tanlash, taqqoslash va baholash, aniqlash, turli xil texnik jarayonlarni tushuntirish. Izlanish mashqi - bu ham egallangan bilimlarni mashqlardan badiiy qo`llash bo`lib, ta`lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini

o`stirishga yordam beradi. Izlanish mashqlari to`zilishiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

- Konstruktsiyaga o`zgarishlar kiritilgan masalani hal qilish;
- Konstruktsiya yetishmaydigan bo`lim kamchiliklarni masalani hal qilib qo`llash;
- Sxema bo`yicha konstruktsiya loyihasini tuzish;
- Texnik talablarga ko`ra ob`ektni mustaqil konstruktsiyalash;

Ta`limdagi faollik usuli-ta`lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o`yinlardan foydalanadi. Ulardan eng ko`p qo`llaniladigan didaktik o`yinlardir. Kasb ta`limdagi didaktik o`yinlar quyidagilar: Texnik diktant; Kichik konko`rsalar; Kim epchilu, kim chaqqon o`yini; Texnik ko`rashlar; Savollar; Texnik domino va xokazo.

Ta`limdagi faollik usuliga seminar darslari ham kiradi. Bu darslar 3 bosqichdan iborat, ya`ni birinchisi seminar bo`yicha o`qituvchining ma`ruzasi; ikkinchisi ta`lim oluvchilar seminar bo`yicha mustaqil uy vazifalarini tayyorlab kelishi; uchinchisi seminarlarni o`qitish. Bunda ta`lim oluvchi tayyorlab kelgan matnlar bilan chiqadi va ko`rgazmali qurollardan, asboblardan, jihozlardan foydalanib, yozgan matnini tushuntirish beradi. Ta`limning faollik usuliga muammoli usul ham kiradi. Ko`pincha adabiyotlarning muammoli o`qitishning nazariy va amaliy tomonlarini yoritib bergan.

O`qitishning axborot texnologiyalari deyilganda maxsus texnik axborot vositalari (EHM, audio, kino, video) dan foydalaniladigan barcha texnologiyalar tushuniladi. Komp`yuterlar ta`limda keng qo`llanila boshlagan davrda «o`qitishning yangi axborot texnologiyalari» degan atama paydo bo`ldi. Umuman aytganda, har qanday pedagogik texnologiya - bu axborot texnologiyadir, chunki o`qitishning texnologik asosini axborot va uning harakati tashkil qiladi. SHuning uchun komp`yuterdan foydalanadigan

o`qitish texnologiyasini komp`yuterli texnologiya deb atash to`g`riroq bo`ladi.

Komp`yuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o`qitish g`oyalarini rivojlantiradi, o`qitishning zamonaviy komp`yuterlar va telekommunikatsiyalarning imkoniyatlari bilan bog`liq bo`lgan mutlaq yangi, hali tadqiq qilinmagan o`qitishning

texnologik variantlarini ochadi. O'qitishning kompyuter texnologiyalari – bu o'rganuvchiga axborotni tayèrlash va uzatish jaraèni bo'lib, u kompyuter vositasida amalga oshiriladi.

Kompyuterli texnologiya quyidagi uch xil variantda amalga oshirilishi mumkin:

1-variant. «Kirib boruvchi texnologiya sifatida» (kompyuterli o'qitishni birorta mavzu bo'yicha, didaktik masalalarning alohida bo'limlari uchun qo'llash).

2-variant. Qo'llanilaètgan texnologiyalar ichida eng asosiysi, aniqlab beruvchisi sifatida.

3-variant. Monotexnologiya sifatida (o'qitish, tashhisning hamma turlari, monitoringni o'z ichiga olgan o'quv jaraènini boshqarish butunlay kompyuterni qo'llashga asoslangan bo'lsa).

Kompyuterli texnologiya quyidagi tasnifiy parametrlarga ega Qo'llash darajasiga ko'ra: umumpedagogik.

O'zlashtirish darajasiga ko'ra: assotsiativ-reflektorli. Mazmun tavsifiga ko'ra: kirib boruvchi, har qanday mazmun uchun yaroqli. Bilish faoliyatini boshqarish turiga ko'ra: kompyuterli. Tashkiliy shakllarga ko'ra: yakka + kichik guruhlar tizimi. O'quvchiga èndashuv bo'yicha: hamkorlik.

Zamonaviylashtirish yo'nalishi bo'yicha: tashkil qilish va boshqarish samaradorligi.

Kompyuterli texnologiyada urg'u quyidagi maqsadlarga qo'yiladi: axborot bilan ishlash uquvlarini shakllantirish, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish;

«axborot jamiyati»ning shaxsini tayèrlash;

o'quvchi qancha o'quv materialini o'zlashtirsa, shuncha berish;

tadqiqot, optimal qarorlar qabul qilish uquvlarini shakllantirish.

Kompyuterli texnologiyaning kontseptual asoslari quyidagilardan iborat:

O'qitish – bu o'quvchining kompyuter bilan muloqoti. Moslashuvchanlik tamoyili: kompyuterning o'quvchi yakka xususiyatlariga

moslashuvi. O'qitishning muloqotli xarakterdaligi. Boshqaruvchanlik: o'qituvchi istalgan vaqtda o'quv jaraèniga tuzatish kiritishi mumkin. O'quvchining kompyuter bilan aloqasi barcha ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin: sub'ekt – ob'ekt,

sub'ekt – sub'ekt, ob'ekt – sub'ekt. Yakka va guruhli ishning optimal mosligi. O'qitishning chegaralanmaganligi: mazmun, uning interpretatsiyasi va ilovalar istalgancha katta bo'lishi mumkin.

Kompyuterli texnologiyaning mazmuni quyidagicha shakllanadi. Kompyuterli texnologiya mazmunning formallashtirilgan modelidan foydalanishga asoslanadi. U kompyuter xotirasiga èzilgan va telekommunikatsion tarmoq imkoniyatlaridan foydalanadigan pedagogik dasturlar vositasidan iborat.

Ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyati zruriy axborotning ko'p marta kattalashtirilishi, axborot, gipermatn va mul'timedia, mikrodonèlar, imitatsion o'qitish, elektron kommunikatsiya (tarmoqlar), ekspert tizimlarning bazalarini o'z ichiga olgan kompyuterli informatsion

muhitning mavjudligi. Kompyuterli texnologiyada ma'lumotlar bazasi

Ma'lumotlar bazasi deganda kompyuter texnikasi èrdamida axborotni kiritish, tizimlashtirish, saqlash va tasvirlash tushuniladi. Axborotni ma'lumotlar bazasida qidirish asosan uch xil usulda amalga oshiriladi : ierarxik, relyatsion va statistik.

Kompyuterli texnologiyada bilimlar bazasi Bilimlar bazasi informatsion tizim bo'lib, berilgan mavzu bo'yicha qo'shimcha axborotga muhtoj bo'lmagan èpiq tuzilmadir. Uning har bir elementi u bilan mantiqiy bog'liq bo'lgan shu to'planning boshqa elementlariga yo'naltirilishi mumkin. Mazkur bazaga tegishli bo'lmagan elementlarga yo'naltirish mumkin emas. Bilimlar bazasida axborotni bunday tashkil qilish o'quvchiga uni o'ziga qulay bo'lgan mantiqda o'rganishga imkon beradi.

O'quvchilarning o'qimishlilik darajasini kompyuterli test asosida aniqlash va ularning psixofizik rivojlanishiga tashhis qo'yish ekspert tizimlardan foydalanish hisobiga to'ldiriladi. Axborotni kompyuterda tasvirlashning boy imkoniyatlari ta'lim mazmunini cheksiz boyitishga va o'zgartirishga imkon yaratadi. Kompyuterli texnologiya metodikasining xususiyatlari. O'qitishning kompyuterli vositalarini interfaol deb atashadi, chunki ular pedagog va talabaning faoliyatlariga «javob berish», ular bilan «muloqotga kirishish» qobiliyatiga ega bo'lib, bu kompyuterli o'qitish metodikasining asosiy xususiyatini tashkil etadi.

O'quv jaraènida kompyuter va uning barcha imkoniyatlaridan foydalanish, pedagogik jaraèn sifatiga ta'sir qiluvchi yuqotishlarning oldini olishga imkon beradigan strategiyani tanlash buyicha jiddiy, ko'p qirrali muammo hosil bo'ladi. SHuning uchun o'qitish jaraènini EHM asosida loyihalashdan oldin o'qituvchi kompyuter asosida o'qitish metodikasini bilishi lozim.

O'qitishda kompyuterning funktsiyalari:

- texnik-pedagogik (o'rgatuvchi va boshqaruvchi dasturlar, diagnostik, modellashtiruvchi, ekspert, muloqotli, maslahatchi, mantiqiy);
- didaktik - kompyuter trenajer, repetitor, assistent sifatida, aniq vaziyatlarni modellashtiruvchi qurilma sifatida, kompyuter o'quv faoliyatni jadallashtirish, o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish vositasi sifatida; kompyuter quyidagi funktsiyalarni bajaruvchi vosita sifatida: o'quv axborotini tezkor yangilash, o'quvchilarning yakka xususiyatlari to'g'risida tezkor axborot olish, uning faoliyatini baholash, nazorat qilish, tuzatish, uni faollashtirish va rag'batlantirish vositasi sifatida.

Bunday vaziyatda pedagogikaning vazifasi belgilangan funktsiyalar bajariladigan shart-sharoitlarni aniqlash va ta'minlashdan iborat. Amaliyotda bu sharoitlar èki aniqlanmagan bo'ladi, yoki ulardan foydalanilmaydi va shuning uchun kompyuterning vazifalari primitiv darajada bajariladi. Kompyuterni qo'llash bilan o'qitish maqsadlari, mazmuni, shakli va usullarining o'zaro aloqasi, bog'liqligi; o'qituvchi so'zi bilan kompyuterning bog'lanishi; kompyuterli mashg'ulotning didaktik strukturasi; kompyuterli mashg'ulotning motivatsion ta'minoti; kompyuter bilan o'qitishning texnik vositalari uyg'unligi.

Bunday ajratishdan maqsad EHM ishining mantig'i bilan o'quv faoliyatning mantig'i orasidagi didaktik asoslangan, oqilona moslikni topishdir. Hozirgi vaqtda ikkinchi mantiq birinchining qurboni bo'lmoqda. SHuning uchun o'qitishni kompyuterlashtirish yetarli samara bermayapti. Maktab sinfiga èki oliy o'quv yurti auditoriyasiga kompyuterni o'rnatish kompyuterlashtirishning tugashi emas, balki kompyuterli o'qitishning boshlanishidir.

Bugungi kunda kompyuterli o'qitishning quyidagi maqsadlari ajratilgan:

Vaqt omili bo'yicha: o'quvchilarni nazorat qilish va ularni tashxisdan o'tkazishda vaqtdan yutish, o'quvchilarga mustaqil, nazorat ishlarini berish va ularni ko'paytirishdan yutish, natijalarni qayta ishlash va ularni tezkor ravishda o'ar bir o'rganuvchiga yetkazish va h.k. o'quv jaraeniga o'quvchilarni "qamrab olish" darajasi bo'yicha: tayanch bilimlarni va faoliyat usullarini faollashtirish, reproduktiv uquv va malakalarni shakllantirish bosqichida yoppasiga o'qitish imkoniyati.

O'rganuvchilarga yakka xolda endoshuvni qo'llash bo'yicha: har bir talaba kompyuterda o'zining imkoniyatlari va ishlash tezligini xisobga olgan xolda ishlaydi;

Pedagogik amallarni "mexanizatsiyalash" darajasiga ko'ra: laboratoriya va amaliy ishlarni tayèrlashda o'rganuvchi ishining jadallashuvi, kompyuterning trenajèr rejimida ishlashi, kompyuter bilan ma'ruza materiali ustida, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarda ishlash.

O'qitishning shaxsga qaratilgan va yakka xolda-faoliyat endashuvni, yangi pedagogik kontseptsiyalarni hisobga oluvchi maqsadlar to'plami zarur. Bundan yuqoridagi maqsadlar ruyxatini quyidagicha to'ldirish zaruriyati kelib chiqadi:

Intellektual sohani rivojlantirish: fikrlashni (bilishni, ijodni), xotira, diqqatni, aql sifatlarini (teranlik, egiluvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil va h.k), bilish uquvlarini (qarama-qarshilik va muammolarni kurish, savollar qo'yish, farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishni bilishni rivojlantirish, predmetga oid bilim, uquv va ko'nikmalarni shakllantirish;

Motivatsion sohani rivojlantirish: intellektual bilimlarga, tabiatni anglashga, jamiyatga, insonga, fikrlash va bilish qonuniyatlariga, uqish motivlarini tarbiyalashga bo'lgan ehtièjlarni shakllantirish; Emotsional sohani rivojlantirish: o'z hissièti va ruxiy xolatlarini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish, ortiqcha xavotirni yengish, o'zini xolisona baholashni tarbiyalash;

Iroda sohasini rivojlantirish: maqsadga intilishni shakllantirish, asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarga o'qitish -qanday faoliyat ko'rsatish, faoliyatni qanday rejalashtirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'maksiz olib borish; O'quv faoliyatni va uning asosiy qismlarini yaxlit shakllantirish: o'quvchilarning diqqatini boshqarish, ularga bajariladigan ishlarni tushuntirish, zaruriy ehtiëj-motivatsion xolatlarni faollashtirish, faoliyatga ërdam berish, tuzatish kiritish, jaraënni va o'quvchilarning o'quv faoliyatining natijasini baholash.

Zamonaviy o'qitish shakllari o'quv yurtining turidan qat'iy nazar quyidagi invariant strukturaga ega:

- tayanch bilimlar va faoliyat usullarini faollashtirish;
- yangi tushunchalar va faoliyat usullarini shakllantirish;
- bilimlarni qo'llash, uquvlarni shakllantirish.

Bu bosqichlar bilan kompyuter qanday bog'lanadi? Ko'p narsa o'quv predmetining xususiyatiga bog'liq: ijtimoiy fanlar bo'yicha bilimlarni formallashtirish juda qiyin (hozircha), shu bilan birga kompyuter ërdamida ijodiy fikrlashni rivojlantirish ham mushkul. SHuning uchun mashg'ulotning ikkinchi bosqichi (yangi tushunchalar va faoliyat usullarini shakllantirish) ko'pincha an'anaviy (verbal) usullar asosida olib borilgani ma'qul. O'quv jaraënining birinchi va uchinchi bosqichlari esa

tadqiqotlarning ko'rsatishicha to'liq kompyuterlashtirilishi mumkin. Faollashtirish bosqichida kompyuter o'quvchilarda yetishmaëtgan bilimlarni to'ldiradi, ularga zarur bulgan tayanch bilim va faoliyat usullarini eslashga ërdam beradi. O'qituvchi barcha o'quvchilar bilimlarining faollashtirilish darajasi xaqida axborot oladi. Bularning hammasi keyingi bosqichlarda ma'lum yutuqlarga erishishni ta'minlaydi. Qo'llash bosqichida o'quvchilar kompyuterli o'qitish ërdamida bemaolol mustaqil faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

## 7.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1997 yil 29 avgust kungi "Kadrlar tayorlash Milliy dasturi to'g'irisida" gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus talim vazirligining 1998 yil 9 yanvar kungi "Kadrlar tayorlash Milliy dasturi talablari asosida o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarini yanada takomillashtirish to'g'irisida" gi 3-sonli buyrug'i.
3. Gel'fgat Yu. I. Sbornik zadach i uprajneniy. Texnologii mashinostroeniya. M. : "Vysshaya shkola" 1975-240 s.
4. Gorbatsевич A. F, SHkred V. A. Kursovoe proektirovanie po texnologii mashinostroenie. M. : Vysshaya shkola, 1983-256s.
5. Kasilova A. G, Mesheryakov R. K. Spravochnik texnologa mashinastroitelya. T-2, M. : Mashinostroenie, 1985-496s.
6. Kasilova A. G, Mesheryakov R. K. Spravochnik texnologa mashinastroitelya. T-1, M. : Mashinostroenie, 1985-656s.
7. Malov A. N. Spravochnik texnologa mashinastroitelya. T-3, M. : Mashinastroenie, 1972-568s.
8. Goroshkin A. K. Pripособleniya dlya metallorejushix stankov. Spravochnik-M. : Mashinostroenie 1979-303s.
9. Dals'kiy A. M. Texnologiya mashinostroeniya. T-1, Osnovy texnologii mashinostroenie. M. : MGTU im N. E. Bauman, 2001-563s.
10. I. M. Belkin. Spravochnik po dopuskam i posadkam dlya rabocheho mashinastroitelya-M. :Mashinastroenie, 1985-320s.
11. Malaxov G. A. Obrabotka metallov rezaniem. Spravochnik texnologa. M. : Mashinostroenie, 1974-598s.
12. Mashinasozlik texnologiyasi fani bo'yicha kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Farg'ona 2007 y.
13. Mel'nikov GyuN. Texnologiya mashinostroenie. T-2, Proizvodstvo mashin. M. : MGTU im N. E. Bauman, 2001-639s.
14. Mirzaev A. A, Sotvoldiev A. E. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. Farg'ona-Texnika, 2002-156 b.

15. Nefyodov N. A, Osipov K. A. Sbornik zadach i priĕerov po rezaniyu metallov i rejushemu instrumentu–M. : Mashinastroenie, 1990–448s.
16. Omirov A, Qayumov A. Mashinasozlik texnologiyasi. Toshkent. : “O’zbekiston”, 2003-379b.
17. Panov A. A, Anikin V. V. Obrabotka metallov rezaniem. Spravochnik texnologa-M. : Mashinostroenie, 1988-736s.